

MAMLAKATIMIZDA SUD HUQUQ TIZIMIDA ISLOHOTLAR
TENDENSIYASI VA SAMARASI

Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi

Hayitboyeva Sarvigulrux Shavkatovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda sud huquq sohasi bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, aholi orasida umumyurisdiksiya sudlarining ahamiyati, kelajakda sud tizimida bo'ladigan islohotlar va o'zgarishlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud, “Sudga elektron murojaat yuborish”, “Sud qarorlarini online olish”, “Elektron to'lov tizmi”, “O'zbekiston-2030” strategiyasi, “Raqamli sud” konsepsiyasi.*

O'tgan qisqa vaqt ichida O'zbekistonda turli sohalar bilan bir qatorda sud-huquq tizimida ham sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmon qabul qilindi. Mazkur hujjatda belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish maqsadida ko'rilgan kompleks choralar sud-huquq sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berganini ishonch bilan aytish mumkin.

Asosiy e'tibor sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash, adolatli sudlov sifatini yaxshilash va sud-huquq tizimini yangilashga qaratildi. Shu bilan birga, bu yo'nalishda davlat siyosatining muhim ustuvor vazifalari aniq belgilab olindi. Sud amaliyotida bir xillikni ta'minlash maqsadida ilgari alohida faoliyat yuritgan Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi bir tuzilma doirasida birlashtirilib, turli toifadagi ishlarni ko'rib chiqadigan yagona oliy sud organi shakllantirildi.

Bundan tashqari, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni kuchaytirish uchun maxsus sudlar tashkil etildi. Ular orqali davlat organlari qarorlari yoki mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari (yoki harakatsizligi) yuzasidan kelib chiqadigan, ommaviy-huquqiy munosabatlarga oid nizolarni ko'rib chiqish imkoniyati yaratildi.⁴²

Sud tizimi ham zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqilib, uning tuzilmasi yanada takomillashtirildi. Xususan, viloyat darajasida ilgari alohida faoliyat yuritgan fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy sudlar asosida, sudyalarning ixtisoslashuvi saqlangan holda, umumyurisdiksiya sudlari shakllantirildi.

Shuningdek, investorlarning huquqlarini sud orqali ishonchli himoya qilish mexanizmini kuchaytirish maqsadida protsessual qonunchilikka muhim o'zgartishlar kiritildi. Unga ko'ra, investorlar bilan davlat organlari o'rtasida⁴³ investitsiya

⁴² file:///C:/Users/pc/Downloads/MAMLAKATIMIZDA+SUD-HUQUQ+TIZIMIDA+ISLOHOTLAR.pdf

⁴³ <https://scientific-jl.com/luch/article/download/19877/19355/38786>

25-Aprel, 2026-yil

shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar hamda raqobatga oid ishlarining sudga taalluqliligi aniq belgilab berildi. Yirik investorlarga oid nizolar va raqobat masalalariga doir ishlar esa, tomonlarning ixtiyoriga binoan, Oliy sud tarkibidagi maxsus sudlov hay’ati tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkinligi mustahkamlandi.

Sudda ishlarni ko‘rib chiqishda inson huquqlarini yanada ishonchli ta’minlash va taraflar o‘rtasida teng tortishuv muhitini yaratish maqsadida dastlabki eshituv bosqichi joriy etildi. Sud faoliyatining ochiqligini kuchaytirish yo‘lida minglab jinoyat ishlari sayyor sud majlislarida ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash hamda dastlabki tergovning maksimal muddatlari qisqartirildi.

Sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash tizimi ham yangilanib, tanlov asosidagi mexanizm joriy qilindi. Nomzodlar uchun o‘tkaziladigan imtihon jarayonlarini ilk bor onlayn tarzda yoritish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, sudyalikka ilk bor tayinlanayotgan nomzodlarni muqobil variantlar asosida ko‘rib chiqish tartibi belgilandi. Malakali sudyalar va sud apparati xodimlarini tayyorlashning yangi tizimi sudlarga bo‘lgan ishonchni oshirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va odil sudlov sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim o‘zgarish sifatida investitsiya va raqobatga oid nizolarni ko‘rib chiqish vakolati to‘liq iqtisodiy sudlarga berildi. Prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida qatnashish amaliyoti bekor qilinib, ular faqat qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda yoki o‘z da’volari asosida qo‘zg‘atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin bo‘ldi.

Shuningdek, sud tizimida nazorat instansiyasi tugatilib, ortiqcha bosqichlar qisqartirildi. Natijada “bir sud – bir instansiya” tamoyili joriy etildi. Endilikda tumanlararo sudlar qarorlari viloyat sudlari tomonidan, viloyat sudlarining birinchi instansiya sifatida chiqargan qarorlari esa Oliy sud tarkibidagi tegishli sudlov hay’atlari tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqiladi.

Bundan tashqari, aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv instituti amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu mexanizm jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini samarali qo‘llash, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada kuchli himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident tomonidan sud-huquq tizimini rivojlantirishga oid ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar nafaqat davlat idoralari, balki jamiyatning barcha qatlamlari zimmasiga muhim vazifalarni yuklaydi. Chunki mustaqil va adolatli sud tizimisiz demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishning imkoni yo‘q. Shu nuqtayi nazardan, Murojaatnoma Yangi O‘zbekistonda huquqiy davlat qurish yo‘lida muhim strategik dastur vazifasini o‘tamoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini tubdan yangilash, odil sudlov samaradorligini oshirish va sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. “Sudga murojaat qilgan har bir fuqaro bu yerda qonun va adolat ustuvorligiga amin bo‘lishi kerak” degan yondashuv davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

25-Aprel, 2026-yil

Yangilangan Konstitutsiyada inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilib, sud organlarini fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil institut sifatida rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Xususan, Konstitutsiyaning 136-moddasida sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonun hamda Konstitutsiyaga bo‘ysunishi aniq kafolatlab qo‘yildi.

Murojaatnomada sud tizimini aholiga yanada yaqinlashtirish maqsadida “raqamli sud” konsepsiyasini joriy etish masalasiga alohida urg‘u berildi. Sud va tergov jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, arizalarni qabul qilishdan tortib ishni sudga oshirishgacha bo‘lgan jarayonlarda sun‘iy intellektdan foydalanish inson omilini kamaytirish, ochiqlikni ta‘minlash hamda huquqlar himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tergov sudyalari institutining joriy etilishi xalqaro miqyosda tan olingan “Habeas corpus” tamoyilini amaliy jihatdan mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi. 2026-yildan boshlab tergov sudyalariga sanksiya berish, ularni o‘zgartirish yoki bekor qilish vakolatlarining berilishi shaxs erkinligini ta‘minlash darajasini yanada oshiradi. Bundan tashqari, jinoyat sud ishlariga “xalq vakillari hay‘ati”ni bosqichma-bosqich jalb etish sud qarorlarining adolatliligi va ochiqligini kuchaytiradi.

Murojaatnomada giyohvandlik, uyushgan jinoyatchilik, iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlar, shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashishda sud-huquq tizimining roli alohida qayd etildi. Korrupsiyaga qarshi kurash esa davlat taraqqiyotiga bevosita ta‘sir etuvchi muhim yo‘nalish sifatida belgilandi. Bu borada barcha tizimlarda komplayens va ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish, “qonun oldida tenglik” tamoyilini amalda ta‘minlash sud tizimining nufuzini oshiradi.⁴⁴

Bugungi global tajribada sud-huquq tizimini rivojlantirishda raqamlashtirish, sun‘iy intellektdan foydalanish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish hamda inson huquqlarini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Murojaatnomada belgilangan vazifalar aynan shu zamonaviy tendensiyalar bilan uyg‘unligi bilan ahamiyatlidir.

Shundan kelib chiqib, hozirgi bosqichda sudyalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, ishlarni sun‘iy intellekt asosida adolatli taqsimlash, sud hujjatlarini avtomatlashtirish, axborot xavfsizligini ta‘minlash hamda sudni eng ishonchli va yakuniy instansiya sifatida shakllantirish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Umuman olganda, mamlakatimizda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar mazmunan chuqur va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular tizimni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi vazifalarning izchil amalga oshirilishi inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini ta‘minlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Adolat qaror topgan jamiyatda fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi ortadi, biznes va investitsiya muhiti yaxshilanadi, mamlakatning xalqaro obro‘si yuksaladi. Shu sababli sud-huquq tizimidagi islohotlarni davom ettirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti bo‘lib qoladi.

⁴⁴ <https://strategy.uz/index.php?news=1442&lang=uz>

25-Aprel, 2026-yil

2026-yil 16-fevralda tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakat taraqqiyotining barcha asosiy yo‘nalishlarini qamrab olib, sud-huquq tizimini rivojlantirishni ham ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilaydi. Unda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda sud tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish asosiy maqsadlar qatoriga kiritilgan.

Sudya nuqtayi nazaridan qaralganda, ushbu strategiya oddiy rasmiy hujjat emas, balki sud tizimini yangilash va aholining kundalik hayotida sezilarli o‘zgarishlar qilishga qaratilgan amaliy dasturdir. Xususan, jinoyat ishlarida yarashuv institutini kengroq qo‘llash, sud va tergov organlarida ayrim protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish, shuningdek, interaktiv xizmatlarni joriy etish orqali fuqarolar uchun qulay sharoit yaratish sud jarayonlarining yanada adolatli, ochiq va insonparvar bo‘lishiga xizmat qiladi.

Strategiyada sud-huquq sohasiga oid bir qator aniq vazifalar ham belgilangan. Jumladan, qonun ustuvorligini mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish maqsadida jinoyat ishlarida yarashuv institutidan foydalanish ko‘lamini kengaytirish nazarda tutilgan. Shuningdek, sud va tergov organlari tomonidan ayrim protsessual harakatlarni masofadan amalga oshirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirish rejalashtirilgan.⁴⁵

Bundan tashqari, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan sud nazoratini kuchaytirish, ma’muriy sudlarda ishlarni kelishuv asosida hal etish darajasini oshirish orqali fuqarolar uchun tez va samarali huquqiy himoya mexanizmlarini yaratish ko‘zda tutilgan. Sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash bilan birga, uning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash ham muhim yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu maqsadda fuqarolar uchun yangi interaktiv xizmatlar joriy etish, sud jarayonlarida shaffoflikni kuchaytirish va ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish rejalashtirilmoqda.

Advokatura institutini rivojlantirish ham strategiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Fuqarolik, ma’muriy va iqtisodiy ishlar bo‘yicha advokatlar, sudlar hamda davlat organlari o‘rtasida elektron hujjat almashinuvini kengaytirish orqali huquqiy yordamning tezkorligi va samaradorligini oshirish maqsad qilingan.

Umuman olganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar sud tizimida adolat, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan. Yarashuv institutining keng qo‘llanishi, masofaviy sud jarayonlari va ma’muriy ishlarni kelishuv asosida hal etish mexanizmlarining rivojlanishi sud faoliyatini yanada insonparvar va qulay qiladi.

Shu bilan birga, interaktiv xizmatlar va elektron tizimlarning keng joriy etilishi fuqarolar hamda advokatlar uchun sud tizimi bilan ishlashni osonlashtiradi, ortiqcha rasmiyatchiliklarni kamaytiradi va huquqiy xizmatlar sifatini oshiradi. Natijada fuqarolarning davlat organlariga, xususan sud tizimiga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi.⁴⁶

⁴⁵ <https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/%D0%8Ezbekiston-sud-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9B-tizimida-amalga-oshirilaetgan-islo%D2%B3otlar-hitoy-oav-di%D2%9B%D2%9Bat-markazida>

⁴⁶ <https://qaraqalpaqstan.sud.uz/uz/archives/10070>

25-Aprel, 2026-yil

Xulosa qilib aytganda, mazkur strategiya sud-huquq tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. U nafaqat tizimni takomillashtirishga, balki har bir fuqaro uchun adolatli sudlovni amalda his etish imkonini yaratishga qaratilgan bo‘lib, kelgusida huquqiy madaniyatning oshishi va qonun ustuvorligining yanada mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <file:///C:/Users/pc/Downloads/MAMLAKATIMIZDA+SUD-HUQUQ+TIZIMIDA+ISLOHATLAR.pdf>
2. <https://scientific-jl.com/luch/article/download/19877/19355/38786>
3. <https://strategy.uz/index.php?news=1442&lang=uz>
4. <https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/%D0%8Ezbekiston-sud-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9B-tizimida-amalga-oshirilaetgan-islo%D2%B3otlar-hitoy-oav-di%D2%9B%D2%9Bat-markazida>
5. <http://m.xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-sud-huquq-sohasidagi>
6. <https://qaraqalpaqstan.sud.uz/uz/archives/10070>